




To'ra Bobolov Afg'onistonidan Surxondaryoga investitsiya kiritish istagida kelgan tadbirkorlarni ham qabul qildi



Surxondaryoda o'z biznesini yuritayotgan afg'onistonlik ishbilarmonlarning yutuq va muammolarini tinglab, o'rtaqa tashlagan masalalariga e'tibor qaratgan To'ra Bobolov bugun Afg'onistonidan Surxondaryo viloyatiga investitsiya kiritish istagida kelgan 20 dan ortiq tadbirkorni ham qabul qildi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbarining bevosita g'oyasi asosida vohaga xorijiy investorlarni jalb etish, ularga qo'shimcha qulayliklar berish uchun Afg'oniston Islom Respublikasi va Surxondaryo viloyati chegara oldi hududida "Termiz" erkin iqtisodiy zonasini va "Termiz xalqaro savdo markazi" tashkil etilayotgani mamlakatlarimiz ishbilarmon doiralari uchun qulay imkoniyat yaratayotir.


26 hektar maydonda barpo etilayotgan "Termiz" xalqaro savdo markazida zamonaviy texnologiyalar asosida mahsulotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, saralash va qadoqlash xizmatlari, elektron savdo portallari tashkil etilib, ikki davlat ishbilarmonlari uchun to'liq savdo-sotiq qilish muhiti yaratiladi.



Qabul chog'ida qo'shni davlat sarmoyadorlari viloyatning boy tadbirkorlik salohiyati, xorijlik investorlar uchun mavjud imtiyozlar, preferentsiyalar, mamlakatlarimiz ishbilarmonlari doirasining teng sheriklikka asoslangan o'zaro hamkorlik aloqalari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'ldi.

- Mana, Amudaryoning shundoq yonida davlatimiz rahbari g'oyasi bilan "Termiz" xalqaro savdo markazini barpo etayapmiz, - dedi viloyat hokimi T.Bobolov. -Bu yerda

nafaqat, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari balki, sizlar ham o'z mahsulotingizni olib kelib, sotish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Qadimdan yaqin do'st va ishonchli hamkor bo'lib kelgan yon qo'shnimizni qo'llab-quvvatlash bizga ajdodlardan qolgan sharaflı burchdir.



Mehmonlar "Termiz" erkin iqtisodiy zonası rahbari Ulug'bek Sapiyevning Termiz tumanidagi Ayritom mahallasi hududida barpo etilayotgan "Termiz" erkin iqtisodiy zonası va "Termiz" xalqaro savdo markazida yaratilayotgan zamona viy sharoit va qulayliklar to'g'risidagi taqdimoti bilan yaqindan tanishdi. Ularni qiziqtirgan savollarga javob berildi.

Afg'onistonlik ishbilarmonlar samimiyligini qabul uchun viloyat hokimiga chuqr minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasining Mozori Sharif shahridagi konsuli Javhar Fattoyev ishtirok etdi.

